



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PUSHTU TILINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (MORFOLOGIYA MISOLIDA)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10397442>

QORABOYEV S.,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pushtu tilini o'qitishning asosiy xususiyatli morfoligiya misolida tahlil qilib o'tildi. Pushtu tili ilk marotaba Afg'onistonda 1936-yili davlat tili sifatida e'lon qilingan bo'lib, hozirgacha mamlakatning ikki rasmiy tillaridan (pushtu va dariy) biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metod, morfologiya, pushtu tili, pushtu tilida jins kategoriyalari.

ABSTRACT

In this article, the main feature of teaching Pashto language was analyzed on the example of morphology. The Pashto language was first declared the state language of Afghanistan in 1936, and is still one of the two official languages of the country (Pashto and Dari).

Key words: method, morphology, Pashto language, gender categories in Pashto.

KIRISH

Oliy ta'lif muassasalarida pushtu tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ta'lif jarayonida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan pushtu tilidagi grammatik kategoriyalarni talabalarga tushuntira olish va ularni kerakli joylarda qo'llash malakasini shakllantirish lozim. Xuddi shunday grammatik kategoriyalardan biri pushtu tilidagi **jins kategoriyasi**dir.

Hind-yevropa oilasiga mansub ko'pgina tillarda bo'lgani kabi pushtu tilida ham jins kategoriyasi mavjud. Pushtu tilida jins kategoriyasi ikkiga bo'linadi: muzakkár (mujskoy) va muannas (jenskiy).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ot so'z turkumi jinslarga ajratilganda **muzakkár otlarga** quyidagilar kiradi:

1. undosh tovush bilan tugaydigan so'zlar: میز - كور - stol, لاس - uy, qo'l;
2. "-ay" - ای diftongi bilan tugaydigan so'zlar: odam - سری - do'st - ملگری;
3. "-oy" - آی diftongi bilan tugaydigan so'zlar: choy - چای - oyoq-;
4. "-o'y" - اوی diftongiga tugaydigan so'zlar: quyon - سوی - o'g'il - زوی -;
5. "-uy" - اوی diftongiga tugaydigan so'zlar: yuz - روی - hid - بوي -;

6. cho‘ziq “u” او ”unlisiga tugaydigan so‘zlar: olxo‘ri- آلو- pichoq- چاقو-

7. cho‘ziq “i” - ي unlisi bilan tugaydigan, kishilarning faoliyati, lavozimi va kasb-korini ifodalaydigan so‘zlar: etikdoz - كومكىي موجى - yordamchi -

8. qisqa “i” - ئ unlisi (zvarakay)ga tugaydigan so‘zlar: yurak - زرە;

9. turkiy tillardan kirib kelgan “chi-” sufiksi bilan tugaydigan so‘zlar: tomoshabin ندارچى-

10. ma’no jihatdan muzakkar jinsga mansub bo‘lgan so‘zlar: tog‘a - ماما , mehmon - مېلمە.

Pushtu tilida **muannas otlarga** esa quyidagilar kiradi:

1. Qisqa “a” - ئ ga tugaydigan so‘zlar: - سترگە - مخکە yer, ko‘z;

2. Cho‘ziq “o” ئ ga tugaydigan so‘zlar: - شا - وينا yelka, nutq;

3. Cho‘ziq “i” ي ga tugaydigan mavhum otlar: - شادى - دوستى do’stlik;

4. Cho‘ziq “u” او ga tugaydigan so‘zlar: - بىزى - پېشىنلىك maymun, pushtu;

5. “ey” ئ diftongiga tugaydigan so‘zlar: - جودى - non, deraza;

6. Zvarakayga tugaydigan so‘zlar: - وړانګه - nur;

7. “i’n”, “dz”, “sht” harf birikmalariga tugagan so‘zlar:

| | | |
|--------|----------|-------|
| ستن | [stən] | igna |
| لمن | [lamən] | etak |
| ورخ | [vradz] | kun |
| أريخ | [uriadz] | bulut |
| میابشت | [myosht] | oy |

8. Arab tilidan kirib kelgan -i,-o,-u,-o unli tovushlardan keyin “ayn” ع va “hoyi hutti” خ harflariga tugagan so‘zlar:

| | | |
|-------|----------|-----------|
| شوروغ | [shuru] | boshlash |
| اسلاح | [isloh] | islohot |
| تفريح | [tafrih] | dam olish |

9. Ma’no jihatdan: ona, مور- singil- خور- .

Shuningdek, pushtu tilida **muzakkar otlardan muannas otlarning yasalish holatlari uchraydi.**

1. Oxiri undosh bilan tugagan so‘zlarga qisqa “a” qo‘shiladi.

[chirg] - چرگ - xo‘roz → [chirga] - چرگه

[ush] - اوشە - tuya → [usha] - اوشە - urg‘ochi tuya

[pashtun] - پشتون - afghan → [pashtana] - پشتنه - afghan qiz

[chang ‘o ‘la] - چنگلە - qalliq → [chang ‘ala] - unashtirilgan qiz

Izoh! Bir bo‘ginli so‘zlarda muzakkardan muannas yasash uchun oxirida “a” yoki zvarakay qo‘shilishi natijasida qisqa “a” harfi tushib qoladi.

[*xar*] خر – Eshak → [*xra*] خره – urg‘ochi eshak

[*g‘al*] غل – O‘g‘ri bola → [*g‘la*] غله – o‘g‘ri qiz

[*mal*] مل – Hamroh → [*mla*] مله – hamroh qiz

2. “Ay” diftongiga tugagan so‘zlar “e” ga o‘zgaradi.

[*malgaray*] ملگری - do‘st → [*malgare*] - dugona

[*zmaray*] زمری - sher → [*zmare*] - urg‘ochi sher

3. Oxiri cho‘ziq “i” bilan tugagan so‘zlar “iy” diftongiga o‘zgaradi.

[*do‘bi*] – kir yuvuvchi (erkak) → [*do‘biy*] – kir yuvuvchi (ayol);

[*mo‘chi*] – kosib (erkak) → [*mo‘chiy*] – kosib (ayol).

4. Oxiri “a” yoki zvarakay bilan tugagan so‘zlar muzakkardan muannas yasalganda “na” orttiriladi.

[*lev*] بُوه – bo‘ri → [*levina*] بُونه – urg‘ochi bo‘ri;

[*melma*] ميلمنه – erkak mehmon → [*melmana*] ميلمنه – ayol mehmon.

Pushtu tilida otlarda uchraydigan **kelishik kategoriyasi** o‘zbek tilidagi kelishiklardan tubdan farq qiladi. Pushtu tilida atigi uch kelishik mavjud bo‘lib, ular bosh, chaqiruv va vositali kelishiklardir.

Bosh kelishik – otning hech qanday qo‘shimchasiz shakli bo‘lib, o‘zbek tilida ham bosh kelishikka to‘g‘ri keladi.

Chaqiruv kelishigi shaxsga murojaatni ifodalab, u bilan odatda ای [Ay!], اوی [E!]، ای [Ey!] undov so‘zleri ishlataladi. Chaqiruv kelishigi pushtu tilida quyidagi usullar orqali yasaladi:

1) undosh tovushga, [*ay*], [*oy*], [*uy*], [*ay*] diftonglariga tugovchi muzakkarr jinsidagi otlar qisqa [*a*] qo‘shimchasini qabul qiladi: هله haləka! “bolakay!”, Ay paštuna! “Ey, pushtun!”, Ay sariya! “Ey, odam!” Zo ‘ya! “O‘g‘lim!” Xudoya! “Xudo!”

2) [*ə*], [*o*], [*u*], [*o*] tovushlariga tugovchi muzakkarr jinsidagi otlar hech qanday o‘zgarishsiz qoladi: Ay ono! “Ey, buvi!”, Ay zrə! “Ey, yurak!”

3) Undosh tovushga, qisqa [*a*] tugovchi muannas jinsiga mansub otlar [*i*] qabul qiladi: Muri! “Ona！”, Ay shədzi! “Ey, ayol!”

4) [*ey*]ga tugovchi so‘zlar, qisqa [*a*] qabul qilishi mumkin: Spojməya! “Oy！”, Ay njələya! “Ey, qiz！”

5) Chaqiruv kelishigining ko‘plik son shakli vositali kelishikning ko‘plik shakliga to‘g‘ri keladi: Grono ‘avredunko！ “Hurmatli tinglovchilar！”

Vositali kelishik – so‘zning siniq shakli bo‘lib, predlog (old qo‘srimcha) va poslelog (ort qo‘srimcha) bilan birgalikda qo’llaniladi va kelishik munosabatlarini ifodalaydi. Vositali kelishik mustaqil holda faqatgina o‘tgan zamon (ergativ qurilish)da egani ifodalash uchun ishlatiladi.

Undosh harflar bilan tugagan va ko‘plik shakli [*una*] va [*on*] qo‘srimchalarini qo‘sish orqali hosil qilinadigan **muzakkarr otlar vositali kelishikda** birlikda o‘zgarmaydi, ko‘plikda [*uno* ‘] اونو yoki [*ono* ‘] انو qo‘srimchasini oladi:

| Asosiy shakli | Ko‘plik shakli | Birlikda vositali kelishikda | Ko‘plikda vositali kelishikda |
|-------------------------|-----------------------|------------------------------|-------------------------------|
| kitob “kitob” كتاب | kitobuna كتابونه | kitob كتاب | kitobuno‘ كتابونو |
| sarboz “askar” سرباز | sarbozuna سربازونه | sarboz سرباز | sarbozuno‘ سربازونو |
| dzoy “joy” حای | dzoyuna حایونه | dzoy حای | dzoyuno‘ حایونو |

“O” va “i” undosh harflari bilan tugaydigan muzakkarr otlar vositali kelishikda birlikda o‘zgarmaydi, ko‘plikda [*ono* ‘] انو qo‘srimchasini olayotganda yoy ى orttiriladi:

| | | | |
|-------------------------|----------------------|-----------------|-------------------------|
| mullo “mulla” ملا | mulloyon مليان | mullo ملا | mulloyono‘ مليانو |
| bandi “asir” بندي | bandiyon بنديان | bandi بندي | bandiyono‘ بنديانو |
| oshnoy “tanish” اشنا | oshnoyon اشنانيان | oshnoy اشناء | oshnoyono‘ اشنانيانو |

“Ay” diftongi bilan tugaydigan muzakkarr otlar vositali kelishikda birlikda asosiy ko‘plik shakli kabi o‘zgaradi, ko‘plikda [*iyo* ‘] يو qo‘srimchasini oladi:

| Asosiy shakli | Ko‘plik shakli | Birlikda vositali kelishikda | Ko‘plikda vositali kelishikda |
|------------------------|----------------|------------------------------|-------------------------------|
| sařay “erkak” سرى | saři سرى | saři سرى | sařiyo‘ سريو |
| kəlay “qishloq” كلى | kəli كلى | kəli كلى | kəliyo‘ كليو |

Pashtun so‘zi tipidagi muzakkar otlar vositali kelishikda birlikda “u” harfi “o”ga o‘zgaradi va cho‘ziq “e” tovushini qabul qiladi, ko‘plikda esa [ano ‘] نو qo‘shimchasini oladi:

| Asosiy shakli | Ko‘plik shakli | Birlikda vositali kelishikda | Ko‘plikda vosi-tal kelishikda |
|---|------------------|------------------------------|-------------------------------|
| pashtun “afg‘on” پښتون | pashtoni پښتانيه | pashtone پښتاني | pashtano‘ پښتو |
| ushbun “tuya boquvchi” اوښبون“boquvchi” | ushboni اوښبانه | ushbone اوښباني | ushbano‘ اوښبنو |
| beltun “ayriliq” بېلتون | beltoni بېلتانه | beltone بېلتاني | beltano‘ بېلتتو |

Qisqa “a” unlisi bilan tugaydigan **muannas otlar vositali kelishikda** birlikda asosiy ko‘plik shakli kabi o‘zgaradi, ko‘plikda qisqa “a” unlisi o‘rniga “o‘ ” و qo‘shimchasini qabul qiladi:

| Asosiy shakli | Ko‘plik shakli | Birlikda vositali kelishikda | Ko‘plikda vositali kelishikda |
|----------------------|----------------|------------------------------|-------------------------------|
| taxta “yog‘och” تخته | taxte تختي | taxte تختي | taxto‘ تختو |
| størga “ko‘z” سترگه | størgi سترگي | størgi سترگي | størgo‘ سترگو |

Cho‘ziq “e” unlisi va “ey” diftongi bilan tugaydigan muannas otlar ham vositali kelishikda birlikda asosiy ko‘plik shakli kabi o‘zgaradi, ko‘plikda “e” unlisi o‘rniga va diftongdan keyin “o‘ ” و qo‘shimchasini qabul qiladi:

| Asosiy shakli | Ko‘plik shakli | Birlikda vositali kelishikda | Ko‘plikda vosi-tal kelishikda |
|-------------------------------|------------------|------------------------------|-------------------------------|
| malgøre “dugona” ملګرۍ | malgøri ملګري | malgøri ملګري | malgøro‘ ملګرو |
| nove “unashtirilgan qiz” ناوي | noveyoni ناوېاني | nove ناوي | noveyono‘ ناوېانو |
| chavkøy “stul” چوکى | chavkøy چوکى | chavkøy چوکى | chavkøyo‘ چوکيو |

Pushtu tilida ot so‘z turkumidagi **kelishik kategoriyasi sifatlarda** ham mavjud bo‘lib, gapda aniqlovchi vazifasida kelgan sifatlar aniqlanmish bilan jins, son va kelishikda moslashadilar. Shunday qilib, sifatlarning jins, son va kelishigi ular tegishli bo‘lgan otning shu kabi kategoriyalariga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan: *to'r mez* - “qora stol”, *to'ra taxta* - “qora taxta”, *to'ri taxte* - “qora taxtalar”.

Vositali kelishikdagi sifatlarning hosil bo‘lish qoidalari vositali kelishikdagi otlarning yasalish qoidalari muvofiq keladi (o‘zgarmas sifatlar bundan mustasno). Ko‘plik sondagi sifatlarning vositali kelishigi ham [*o'*] tovushiga tugaydi: *Də to'ro 'taxto 'ujdvolay* - “Qora taxtalarning uzunligi”.

Pushtu tilida **son so‘z turkumida** ham o‘zbek tiliga o‘xshamagan o‘ziga xosliklar mavjud. Bu o‘nlikdagi sanoq sonlarda ko‘zga tashlanadi. Pushtu tilida o‘nlikdagi sanoq sonlarda yigirmadan boshlab birlik o‘nlikdan oldin aytiladi.

| | |
|------------------|-------------------------------|
| bir – [yav] | yigirma bir – [yavvisht] |
| ikki – [dva] | yigirma ikki – [dvavisht] |
| uch – [dre] | yigirma uch – [dərvish] |
| to‘rt – [tsalur] | yigirma to‘rt – [tsalurvisht] |
| besh – [pindzə] | yigirma besh – [pindzəvisht] |
| olti – [shpaj] | yigirma olti – [shpajvisht] |
| yetti – [ovə] | yigirma yetti – [ovəvisht] |
| sakkiz – [atə] | yigirma sakkiz – [atəvisht] |
| to‘qqiz – [nəh] | yigirma to‘qqiz – [nəhvish] |

Bu tartib yuzgacha davom va o‘nlik sanoq sonlar [*nəh nəvi*] to‘qson to‘qqiz bilan tugaydi.

Pushtu tilida **olmosh so‘z turkumida** ham o‘zbek tilida bo‘lmagan o‘ziga xosliklar mavjud. Bunday o‘ziga xosliklar qatoriga ba’zi olmoshlardagi vositali kelishik hamda enklitik va shaxsga qaratilgan olmoshlarni kiritishimiz mumkin.

Vositali kelishik shakli mavjud olmosh turlaridan biri bu kishilik olmoshlaridir.

| <i>Shaxs</i> | <i>Birlik</i> | | | <i>Ko‘plik</i> | | |
|--------------|---------------|-------|----|----------------|--------|------|
| I sh. | men | [zə] | زه | biz | [muj] | موه |
| II sh. | sen | [tə] | ته | siz | [tosı] | تاسى |
| III sh. | u (m-r. j.) | [day] | دي | ular | [duy] | دوى |
| | u (m-s. j.) | [do] | دا | | | |

Kishilik olmoshlari vositali kelishikda faqat birlikda o‘zgaradi, ko‘plikdagi kishilik olmoshlari o‘zgarmaydi:

| <i>Shaxs</i> | <i>Birlik</i> | | | <i>Ko‘plik</i> | | |
|--------------|---------------|------|----|----------------|--------|------|
| I sh. | men | [mo] | ما | biz | [muj] | موه |
| II sh. | sen | [to] | تا | siz | [tosı] | تاسى |

Menga, bizga bermoq راکول [rokavəl]

Senga, sizga bermoq درکول [darkavəl]

Unga , ularga bermoq ورکول [varkavəl]

Masalan: U menga olma beryapti. - [day mota mana rokavi] دى ماته منه راکوی

Pushtu tilida **fe'l so'z turkumi** o'ta murakkab. Fe'l tuzilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, u fe'lning tugallangan shaklining barcha zamonlarining shakllanishiga, mayliga va nisbatiga ta'sir ko'rsatadi.

Pushtu tilidagi barcha fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab fe'llarga ajratiladi.

Sodda fe'llarga ot va yordamchi کول [kavəl] - "qilmoq" va کېدل [kedəl] - "bo'lmoq" fe'llarisiz hamda prefikslarsiz ifodalangan barcha fe'llar kiradi. Sodda fe'llar to'g'ri, noto'g'ri va supletiv fe'llarga ajratiladi.

a) to'g'ri fe'llar – bu tarkibiga ko'ra bir asosli fe'llar bo'lib, barcha shaklda yaxlit bo'ladi. Masalan:

| | |
|-----------------------------------|--------|
| jo'natmoq - <i>lejəl</i> | لې يول |
| ega bo'lmoq - <i>larəl</i> | لې لرل |
| tashlamoq, otmoq - <i>achavəl</i> | اچ يول |
| yuvmoq - <i>mindzəl</i> - | مېنځل |
| yozmoq - <i>likəl</i> | ليکل |

b) noto'g'ri fe'llarga ikki asosli, ya'ni hozirgi zamon negiziga (HZN) va o'tgan zamon negiziga (O'ZN) ega bo'lgan fe'llar kiradi.

Masalan:

| | |
|-----------------------------------|--------|
| qaramoq - <i>katəl</i> | كتل |
| tanimoq, bilmoq - <i>pejandəl</i> | پېژندل |

c) supletiv shaklga ega bo'lgan fe'llar quyidagilar:

| O'zbek tilida | O'qilishi | Pushtu tilida | HZN | Supletiv shakli |
|---------------|----------------|---------------|-------|-----------------|
| bormoq | <i>tləl</i> | تلل | خى | ولار شى |
| kelmoq | <i>rotləl</i> | راتلل | راخى | راشى |
| olib bormoq | <i>bivəl</i> | بي يول | بيائى | بوزى |
| olib bormoq | <i>vrəl</i> | ورل | ورى | يوسى |
| qilmoq | <i>kavəl</i> | کول | کويى | کېرى |
| bo'lmoq | <i>kedəl</i> | کېدل | کېپوى | شى |
| ega bo'lmoq | <i>larəl</i> | لرل | لرى | درلود |
| qo'ymoq | <i>ishodəl</i> | ايښو دل | پودى | کشپەردى |

Pushtu tilida murakkab fe'llar ot, sifat, ravish so'z turkumlaridan o'timli fe'llar uchun – **کول** *kavəl*, va o'timsiz fe'llar uchun – **کېدل** *kedəl* yordamchi fe'llari yordamida hosil qilinadi.

O'timli fe'llar to'g'ridan-to'g'ri predlogsiz to'ldiruvchi talab qiladi. Murakkab fe'llar yasalishiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1) Pristavkali (old qo'shimchali) fe'llarda odatdagidan farq qilgan holda ma'lum shakllarni ifodalashda ba'zan qoidadan chekinish kuzatiladi.

Masalan:

| | | |
|----------------|------------------|-----------|
| sotib olmoq - | <i>raniyəl-</i> | رانيول- |
| kirmoq - | <i>nənəvətəl</i> | نونت - |
| o'tirmoq - | <i>kşenəstəl</i> | کېنىستل - |
| kesmoq - | <i>prekavəl</i> | پرېکول - |
| to'htamoq - | <i>daredəl</i> | درېدل - |
| yetib bormoq - | <i>rasedəl</i> - | رسېدل - |

2) To'liq birikmagan fe'llar sifat so'z turkumidan ba'zan, ot so'z turkumidan, fe'liy suffiksal [avəl] o'timli fe'llar uchun va بېدل [edəl] o'timsiz fe'llar uchun so'z boshidagi ك - [k] tovushini tushirib qoldirish yo'li bilan yasaladi.

Masalan: [jo 'r] – “sog” sifatidan جورول [jo 'ravəl] -“qurmoq” va [jo 'redəl] - “qurilmoq” fe'llari yasaladi.

Fe'lning tugallangan turini hosil qilishda to'liq birikmagan fe'l ot va yordamchi fe'llarga ajralib, yordamchi fe'l [vu] prefiksisiz tugallangan fe'l turida keladi: يوھ ورخ تېرە شوھ [Yava vradz tera shva] – “Bir kun o'tdi”.

3) To'liq birikgan fe'llar odatda ot va ravishlardan hosil qilinadi: [*loslik kavəl*] “imzolamoq”, [*tərsho kedəl*] “ortga qaytmoq”. *Tarun ye loslik kər* - “Ular shartnomani imzoladilar”, *Paudzuna tərsho shvəl* - “Qo'shinlar chekindilar”.

Aytib o'tish kerakki, sifat unli [o], [u], [e], [i] tovushlarga tugaganida, fe'l yasashda ko'makchi fe'llardagi boshlang'ich [k] tovushi tushib qolmaydi: [nəjde kedəl] -“yaqinlashmoq”, [*liri kavəl*] -“uzoqlashtirmoq”.

To'liq birikgan fe'llarni quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

a) tarkibida predlogsiz ot so'z turumi yordamida hosil bo'lgan fe'llar.

| | | |
|----------------------------|----------------------|--------------|
| bajarmoq - | <i>ijro kavəl</i> | اجرا کول - |
| tarjima qilmoq - | <i>tarjuma kavəl</i> | ترجمه کول - |
| imzolamoq - | <i>loslik kavəl</i> | لاسلیک کول - |
| ortga qaytmoq, chekinmoq - | <i>berta kedəl</i> | بېرتە کېدل - |

b) tarkibida predlogli ot so'z turumi bo'lgan fe'llar.

| | | |
|----------------------|-----------------------|----------------|
| qo'lga kiritilmoq - | <i>tər losa kedəl</i> | تر لاسه کېدل - |
| bajarmoq, tugatmoq - | <i>tər sara kavəl</i> | تر سره کول - |



پېپنۇ كول - *pə psho kavəl* - oyoq-kiyimni kiymoq

XULOSA

Yuqorida keltirib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, olivy ta’lim muassasalarida pushtu tilini o‘qitishda har bir mavzu alohida yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun ma’lum bir mavzu doirasida qo‘llanilgan o‘qitish uslubi keyingi mavzuga mos kelmasligini inobatga olish zarur. Shu bilan birga grammatik qonun-qoidalarni o‘rgatish soha xususiyatlarini e’tiborga olgan holda nofilologik yondashuv asosida turli misollar, o‘yinlar va diqqatni jalb etuvchi usullar orqali amalga oshiriladi.